

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.12.2020.1.130.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON UNIVERSITETI

XURSANALIYEV BOBURLIRZO FARHOD O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI YIRIK BIZNESGA
TRANSFORMATSIYALASHUVINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Xursanaliyev Boburmirzo Farhod o'g'li

O'zbekistonda kichik biznesni yirik biznesga transformatsiyalashuvini
takomillashtirish 3

Khursanaliyev Boburmirzo Farhod ugli

Improving the transformation of small business into big business in
Uzbekistan 27

Хурсаналиев Бобурмирзо Фарход угли

Улучшение трансформации малого бизнеса в крупный бизнес в
Узбекистане 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

List of published works

Список опубликованных работ 51

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.12.2020.1.130.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON UNIVERSITETI

XURSANALIYEV BOBURLMIRZO FARHOD O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI YIRIK BIZNESGA
TRANSFORMATSIYALASHUVINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3643 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.kokanduni.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aripov Oybek Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jaxongirov Ildorjon Jaxongirjon o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.12.2020.1.130.01 raqamli Ilmiy kengash asosida Ilmiy kengashning 2025-yil "18" yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:150701, Qo'qon shahri, Turkistan, 28A. Tel.: (99873) 545-55-55; faks: (99873) 545-55-55; e-mail: info@kokanduni.uz).

Dissertatsiya bilan Qo'qon universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (03 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:150701, Qo'qon shahri, Turkistan, 28A. Tel.: (99873) 545-55-55; faks: (99873) 545-55-55).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "06" yanvar kuni tarqatildi.
(2025-yil "06" yanvardagi 02-raqamli reyestr bayonnomasi)



Z.U.Berdinazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

A.A.Islamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotihi, i.i.n. dosent

J.H.Kambarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon savdosining rivojlanishida kichik biznesning ahamiyati uning innovatsiyalarga, tadbirkorlikka va iqtisodiyotning barqarorligini saqlashdagi moslashuvchanligiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Mahalliy bozorlarda unchalik katta ta'sirga ega bo'lmagan kichik korxonalar global miqyosda yirik korporatsiyalarga aylanishi ularning tadbirkorlik potentsiali va dinamikligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 400 milliondan ortiq kichik biznes faoliyat olib borayotgan bo'lsa, bu raqam 2030 yilga borib 600 millionga yetishi kutilmoqda¹. Kichik bizneslar jahon savdosining 97 foizida ishtirok etib, umumiy eksportning 30 foizini tashkil etmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumi ma'lumotlariga ko'ra², 2023 yilda biznesni tashkil etishdagi eng katta o'sishga erishgan mamlakatlarni Buyuk Britaniya, AQSh, Singapur, Germaniya va Kanada kabi davlatlar tashkil qilmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun tahlil qilinishi kerak bo'lgan omillarni aniqlash va to'siqlarni bartaraf etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sanalmoqda.

Kichik biznesni yirik korxonalariga transformatsiyasi xalqaro savdo va investitsiyalar uchun juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi bozorlarga kirish va dunyo bo'ylab strategik hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali bu korxonalar global savdo oqimlarining kengayishiga hissa qo'shadi, iqtisodiy integratsiyani rag'batlantiradi va global bozorda o'zaro bog'liqlikni kuchaytirmoqda. Bu nafaqat samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshiradi, balki geosiyosiy hamkorlik va o'zaro manfaat muhitini ham rivojlantirmoqda. Shu bilan bir qatorda ushbu transformatsiya tadbirkorlikning jamiyatdagi o'zgarishlar va taraqqiyotga olib keladigan o'zgartiruvchi kuchining ramzi hisoblanmoqda. Ushbu korxonalar o'sib ulg'aygani sari, ular ijtimoiy harakatchanlikning dvigateliga aylanadi va butun dunyo bo'ylab iqtisodiy imkoniyatlarni yaratmoqda. Ish o'rinlarini yaratish, malaka oshirish yoki jamoatchilikni jalb qilish orqali bu korxonalar yanada inklyuziv va bardoshli jamiyat qurishda muhim rol o'ynamoqda.

Mamlakatimizda ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda xukumat tomonidan dadil qadamlar tashlanib, islohotlar va jonlanish davrini boshlab berdi. Ushbu uyg'onishning boshida iqtisodiy o'sishni, innovatsiyalarni rag'batlantirish va mamlakatning kelajak traektoriyasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashga tayyor bo'lgan rivojlanayotgan kichik biznes sektori yotmoqda. Iqtisodiyotni liberallashtirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar fonida kichik biznesning yirik korxonalariga aylanishi O'zbekistonni o'zining ulkan taraqqiyot maqsadlari sari olg'a intilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030"³ strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini

¹ Rahman Ali. 2024. Small Business Statistics: Facts, Numbers, and Recommendations 2024. Business Strategy & Growth. Profile tree

² World economic forum - <https://www.weforum.org/publications/annual-report-2023-2024/in-full/our-organization-5f5b6f9aba/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish va sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash dolzarb vazifalar bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentabrdagi PF-6314-son “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴ farmoni hamda “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4335-sonli qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes korxonalarini faoliyatini yanada rivojlantirish va ularni yirik biznesga transformatsiyalashuvi mexanizmini takomillashtirishning metodologik asoslarini o‘rganishda yevropa olimlardan J.A.Schumpeter, E.H.Schein, R.Flanagan, P.Burns, J.Klasen, S.Burch, D.Ulas, B.A.Krasniqi, V.Saundarajan, D.Storey, J.F.Bolton, D.B.Audretsch, A.N.Berger, C.G.Brush, S.Chatterjee, S.Jankov, L.Lee, S.Rink, K.G.Mills, T.Luukkanen, M.E.Porter, W.W.Powell, A.M.Robb⁵ kabi olimlar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6314-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-5635417>

⁵ Schumpeter, J.A., (1934), *The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest and the Business Cycle*, translated from the German by Redvers Opie, New Brunswick (U.S.A) and London (U.K.): Transaction Publishers.; Schein, E.H. (2009). *Helping: How to offer, give, and receive help*. San Francisco: Berrett - Koehler Publishers.; Mandviwalla, M., & Flanagan, R. (2021). Small business digital transformation in the context of the pandemic. *European Journal of Information Systems*, 30(4), 359-375.; 4.3.; Burns, P. (2022). *Entrepreneurship and small business*. Bloomsbury Publishing.; 4.5.; Klasen, J. (2019). *Business Transformation*. SpringerGabler, Wiesbaden.; Burch, S., Andrachuk, M., Carey, D., Frantzeskaki, N., Schroeder, H., Mischkowski, N., & Loorbach, D. (2016). Governing and accelerating transformative entrepreneurship: exploring the potential for small business innovation on urban sustainability transitions. *Current opinion in environmental sustainability*, 22, 26-32.; Ulas, D. (2019). Digital transformation process and SMEs. *Procedia computer science*, 158, 662-671.; Krasniqi, B. A., & Desai, S. (2016). Institutional drivers of high-growth firms: country-level evidence from 26 transition economies. *Small Business Economics*, 47(4), 1075-1094.; Soundararajan, V., Jamali, D., & Spence, L. J. (2018). Small business social responsibility: A critical multilevel review, synthesis and research agenda. *International Journal of Management Reviews*, 20(4), 934-956.; Storey, D. J. (2016). *Understanding the small business sector*. Routledge.; Bolton, J. F (1971). *Report of the Committee of Inquiry on small firms*. Bolton report Cmnd. 4811. London: HMSO.; Audretsch, D. B. (2002). The dynamic role of small firms: Evidence from the US. *Small Business Economics*, 18(1-3), 13-40.; Berger, A. N., & Udell, G. F. (1998). The economics of small business finance: The roles of private equity and debt markets in the financial growth cycle. *Journal of Banking & Finance*, 22(6-8), 613-673.; Brush, C. G., Greene, P. G., & Hart, M. M. (2001). From initial idea to unique advantage: The entrepreneurial challenge of constructing a resource base. *Academy of Management Perspectives*, 15(1), 64-78.; Chatterjee, S., & Kar, A. K. (2020). Why do small and medium enterprises use social media marketing and what is the impact: Empirical insights from India. *International Journal of Information Management*, 50, 135-149.; Li, L., Su, F., Zhang, W., & Mao, J. Y. (2018). Digital transformation by SME entrepreneurs: A capability perspective. *Information Systems Journal*, 28(6), 1129-1157.; Rink, S. (2024). Sustainable small business lending. *Sustainable Futures*, 8, 100292.; Mills, K. G., & McCarthy, B. Y. (2014). *The State of Small Business Lending: Credit Access During the Recovery and How Technology May Change the Game*. Harvard Business School. Laukkanen, T., Tuominen, S., Reijonen, H., & Hirvonen, S. (2016).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yirik biznesga transformatsiya jarayonini yanada takomillashtirish muammolari va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari MDH davlatlaridan E.I.Karpova, L.I.Chubraeva, L.I.Nivorojkina, Z.A.Morozova, V.V.Ivanov, G.L.Bagiev, Y.Panfileva, S.E.Shepelev, V.Marachov, V.S.Proxorovski va L.N.Chaynikova, I.Khoma, Y.R.Khayrullina⁶larning tadqiqotlarida ko‘rish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, sohaning samaradorlik ko‘rsatkichlari, uning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda rivojlantirish orqali yiriklashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha mahalliy olimlarimizdan akademik S.S.G‘ulomov, A.Sh.Bekmurodov, B.Berkinov, M.S.Qosimova, A.N.Samadov, K.Muftaydinov, X.Aybeshov, Y.Abdullaev, D.X.Suyunov, J.Donaboyev, R.H.Ergashev, I.Y.Umarov, R.A.Rashidov⁷ va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Qo‘qon universitetining ilmiy- tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyatini yirik biznesga transformatsiya jarayonlarining mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

biznes hajmini baholashning ilmiy-uslubiy mezonlarining nazariy asoslarini o‘rganish;

Does market orientation pay off without brand orientation? A study of small business entrepreneurs. *Journal of Marketing Management*, 32(7-8), 673-694.; Porter, M. E. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York: Free Press.; Powell, W. W., & Grodal, S. (2005). Networks of innovators. In J. Fagerberg, D. C. Mowery, & R. R. Nelson (Eds.), *The Oxford Handbook of Innovation* (pp. 56-85). Oxford: Oxford University Press.; Robb, A. M., & Robinson, D. T. (2014). The capital structure decisions of new firms. *Review of Financial Studies*, 27(1), 153-179.

⁶ Karpova EI. (1999). Analysis of foreign experience in supporting small business / EI Karpova, LI Chubareva: [http:// www.nbu.gov.ua](http://www.nbu.gov.ua); Ниворожкина Л.И. Основы статистики с элементами теории вероятностей для экономистов / Л.И.Ниворожкина, З.А.Морозова и др. – Ростов н/Д: Феникс, 320 с.; Иванов, В. В., & Убушаева, Б. Г. (2020). Современные структурные проблемы развития малого и среднего предпринимательства в России в условиях трансформации глобальной экономики и пути их решения. *Муниципальная академия*, (3), 35-42.; Bagiev G.L. (2016). *Organization of entrepreneurial activity: textbook* / Bagiev G.L., Asaul A.N. - St. Petersburg.: Publishing.; Панфилова, Е. А., & Комарова, С. Н. (2020). Формы поддержки субъектов малого и среднего предпринимательства в условиях цифровой трансформации. *Естественно-гуманитарные исследования*, (3 (29)), 282-289.

⁷ Гуломов С.С. Тadbirkorlik va kichik biznes. – Т.: 1998.; Бекмуродов А.Ш., Сагторов С., Тўраев Ж., Солиев К., Рўзиев С. Ўзбекистон иктисодиётини либераллаштириш йилларида. Кичик бизнес ва тadbirkorlik ривож- давр талаби. -Т.: ТДИУ, 2005.-173 б.; Беркинов Б., Айнакулов М.А. Кичик тadbirkorlik корхоналарининг йирик корхоналар билан ишлаб чиқариш кооперацияси. *Жиззах.*: ЖДУ, 2004.-192 б.; Қосимова М.С., Самадов А.Н., Мухитдинова У.С. Кичик бизнес ва тadbirkorlik.Ўқув қўлланма. -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти, 2005.-191 б.; К.Муфтайдинов, Х. Айбешов «Кичик бизнесни бошқариш» 2003 й 6-7 б.; Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. - Т.: Меҳнат. 2011 й.; Суюнов Д.Х. Кичик бизнес субъектларида бошқарувни ташкил қилиш ва унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари.икт.фан.ном.дис.автореф. Тошкент: 2004.-21 б.; Umarov Ikhomjan Yuldashevich, Rakhmanov Mukhammadeldor.(2021) The impact of digital economy on the development of small business and private entrepreneurship // *EESJ*. 2021. №2-3 (66).; R. H. Ergashev, D. B. Taylakova. Economic mechanism of state support of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *National Academy of Sciences of Ukraine*. Vol. 2019, Iss: 4, pp 124-132.; Rashidov, Rahmatullo, A'lojonovich. (2023). The need for government regulation of small business. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 03(01):13-20. doi: 10.37547/ijmef/volume03issue01-02.; D.Khamdamova, 2021. O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish. *Center Science and Practice*. Vol. 7, Iss: 3, pp 218-227.; J.Donaboyev, 2023. O‘zbekistonda biznes raqobat muhitini yaratish muammolari. *Economics and education*.

biznes yuritishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq etish;
kichik biznesni yirik biznesga transformatsiyalashuvining xorijiy tajribalarini yoritish;

kichik va yirik biznesning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish;
kichik biznesni yirik biznesga transformatsiyalashuvining amaliy ifodasini asoslash;

kichik biznesni yiriklashtirishning mavjud muammolari hamda yechimlarini tadqiq etish asosida takomillashtirish yo'llarini bayon etish;

kichik va yirik biznesni xalqaro bozordagi mavjud tendensiyalarini tahlil qilish asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

kichik biznesni yirik biznesga transformatsiyasini rivojlantirishning usul va vositalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes bilan shug'ullanadigan tashkilotlar hisoblanadi. **Tadqiqotning predmetini** kichik biznes subyektlarini yirik biznesga transformatsiyalashuv mexanizmini takomillashtirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy modellashtirish, tizimli tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil, korrelatsion, regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

moliyaviy manbaalarni jalb qilish va tadbirkorlikda sherikchilik munosabatlarini tartibga solish maqsadida kichik biznes subyektlarining rivojlanishi natijasida yirik biznesga aylanishi uchun qimmatli qog'ozlar bozoriga kirishda soddalashtirilgan Mikro IPO dasturi taklifi asoslangan;

"Tadbirkorlik ekotizim modeli"ni moliyaviy, madaniy va inson kapitali salohiyatining institutsional tuzilmasi uchligini joriy qilish orqali kichik biznesning yirik korxonalariga aylanishi imkoniyati taklif etilgan;

kichik biznes subyektlarini barqaror rivojlanishi va bozor munosabatlariga tez moslashishini ta'minlovchi atributlar (tadqiqot, innovatsiya, optimizatsiya, moliyaviy boshqaruv) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida kichik bizneslarning yirik biznesga aylantirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish modeli ishlab chiqilgan;

kichik biznes subyektlarining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash asosida ishlab chiqarish hajmining 2028 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes subyektlarining yirik biznesga aylanishini qo'llab-quvvatlash moliyaviy manbalarni samarali jalb qilish va sherikchilik munosabatlarini tartibga solish mexanizmi takomillashtirish taklifi berilgan;

moliyaviy, madaniy va inson kapitali salohiyatining institutsional tuzilmasi asosida kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi va samaradorligini oshirishga qaratilgan model ishlab chiqilgan;

tadqiqot, innovatsiya, optimizatsiya va moliyaviy boshqaruv kabi asosiy atributlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini va bozor talablariga tez moslashishini ta'minlaydigan raqobatbardoshlik mexanizmlari takomillashtirilgan;

kichik bizneslarning samarali rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmining 2028 yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash orqali iqtisodiy o'sishning istiqbollari belgilab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi, qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika agentligi, shuningdek, Farg'ona viloyati soliq boshqarmalarining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda taklif etilgan xulosa va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan kichik biznes sub'ektlari faoliyatida samarali boshqarishning nazariy asoslari mukammal darajada o'rganish, kichik biznes sub'ektlari faoliyatini takomillashtirishning metodologik asoslarini o'rganish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida mavjud resurslardan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan, kelgusidagi maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi tomonidan kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarini, jumladan "Kichik biznes va tadbirkorlik", "Sanoat iqtisodiyoti", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot" fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznesni yirik biznesga transformatsiyalashuvini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

- Mikro IPO dasturi taklifi orqali kichik korxonalar moliyaviy manbaalarni kengaytirish yirik biznesga aylanishi va tadbirkorlikda sherikchilik munosabatlarini tartibga solish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozoriga kirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi (04/7-10-74 sonli ma'lumotnomasi) faoliyatida foydalanilgan;

- "Tadbirkorlik ekotizim modeli"ni moliyaviy, madaniy va inson kapitali salohiyatining institutsional tuzilmasi uchligini joriy qilish orqali kichik biznesning yirik korxonalarga aylanishi imkoniyati taklifidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi (04/7-10-74 sonli ma'lumotnomasi) faoliyatida foydalanilgan. Mazkur taklif asosida Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan "Global Asia Standart" MCHJ ("Global Asia Standart" MCHJning 2024 yil 12 sentabrdagi № 09/24-812-sonli ma'lumotnomasi) hamda "Beknur invest impeks" MCHJlar daromadliligi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 3,2% va 18% o'sishni qayd etdi;

- kichik biznes subyektlarini barqaror rivojlanishi va bozor munosabatlariga tez moslashishini ta'minlovchi atributlar (tadqiqot, innovatsiya, optimizatsiya, moliyaviy boshqaruv) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida kichik bizneslarning yirik biznesga aylantirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish modeli taklifidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi (04/7-10-74 sonli ma'lumotnomasi) faoliyatida foydalanilgan;

- kichik biznes subyektlarining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash asosida ishlab chiqarish hajmining 2028 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi (04/7-10-74 sonli ma'lumotnomasi) faoliyatida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda ta'limiy maqola, shundan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy va 1 ta Scopus bazasida indekslanuvchi konferensiyada chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kichik biznesni yirik biznesga transformatsiyalashuvining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik faoliyatlariga baho berishdagi mavjud tendensiyalar va xorijiy tajribalar o'rganilib, mamlakatimizda biznesga baho berishning metodologiyasi tahlil qilingan.

Avvalo, kichik korxonalarni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan moliyaviy va huquqiy yordam ko'rsatish hamda soliq to'lovlari miqdorini adolatli belgilash zaruriyati ta'kidlangan. Bu kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va ularning yirik biznesga aylanishi uchun zamin yaratadi.

Shuningdek, iste'molchilarning barqaror va ishonchli firmalarning tovar hamda xizmatlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoji alohida qayd etilgan. Barqaror bo'lmagan kichik kompaniyalardan ko'ra, mustahkam asosga ega korxonalar bilan hamkorlik qilish iste'molchilarning xohish-istaklariga mos keladi.

Hodimlar nuqtai nazaridan esa, biznes hajmining o'sishi ularning daromadlari oshishiga va yangi lavozim imkoniyatlarining yaratilishiga olib kelishi muhim ahamiyatga ega ekani ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, mahalliy hamjamiyat uchun biznes hajmini aniqlash va kelajakda ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini bilish muhimligi ta'kidlangan. Bugungi kunda biznes hajmini baholash nafaqat tadbirkorlar, balki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutishi zarur shartlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Ushbu ilmiy-amaliy yondashuvlar dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini oshiradi va kichik biznesni yirik biznesga aylantirish jarayonida samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 fevraldagi PF-21- sonli “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁸gi farmoniga muvofiq tadbirkorlik subyektlari asosiy uch toifaga ajratildi.

Unga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi. Mikrofirmalar deganda, ta’rischilari faqat jismoniy shaxslar bo‘lgan hamda kalendar yil davomida jami daromadi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari tushuniladi. Kichik korxonalar esa jami daromadi 1 milliarddan 10 milliard so‘mgacha bo‘lgan va ta’rischilari yuridik shaxslar bo‘lgan tadbirkorlik subyektlaridir.

O‘rta tadbirkorlik subyektlari esa jami daromadi kalendar yil davomida 10 milliard so‘mdan 100 milliard so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Shuningdek, yirik tadbirkorlik subyektlari sifatida jami daromadi kalendar yil davomida 100 milliard so‘m va undan yuqori bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari

Kichik biznesda ilg‘or xorijiy davlatlarni tajribalarini tahlil qilish uchun biz biznes yuritishda muhim sanalgan kommunikatsiya, qaror qabul qilish hamda muammoni yengish omillarini tanlab oldik va ushbu omillar turli rivojlangan davlatlarda biznes yuritishda qanchalik ahamiyatli va qay darajada ta’sir kuchiga ega ekanligini o‘rganamiz. Shuningdek biz tadqiqotimiz uchun o‘nta rivojlangan va aholisi biznes yuritishda muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlarni tanlab oldik. Ular Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Niderlandiya, Shvetsiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Korea va Xitoy kabi davlatlardir.

1-jadval

Kichik biznes faoliyatini boshqarishda xorijiy mamlakatlar madaniy tajribasi⁹

T/r	Rivojlanish omillar	Davlatlar	Boshqaruv uslubi
1	Texnologik innovatsiyalar, Hukumat yordami	Yaponiya, Janubiy Koreya Xitoy	Sinxron, diplomatik, Qattiqqo‘l
2	Startup ekotizimi, Innovatsion infratuzilma	Kanada va Avstraliya AQSH	Oportunistik To‘g‘ridan – to‘g‘ri
3	Logistika, tashqi savdo, Yashil texnologiyalar	Norvegiya Niderlandiya	Oportunistik To‘g‘ridan – to‘g‘ri

Har bir mamlakatda kichik biznes subyektlarining yirik biznesga aylanishiga ta’sir qiluvchi omillar turilicha. Bu jarayon ko‘plab omillar, jumladan, texnologik innovatsiyalar, hukumat yordami, startup ekotizimi, iqtisodiy rivojlanish va logistika imkoniyatlariga bog‘liq. Bugungi kunda Yaponiya, Janubiy Korea va Xitoy kabi mamlakatlarda texnologik innovatsiyalarga davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlar kichik bizneslarni yirik bizneslar aylanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Startup va innovatsion infratuzilma ekotizimi AQSH, Kanada va Avstraliyada

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.02.2023 yildagi “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni, PF-21-son.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan


rivojlangan bo‘lib, kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishida asosiy omillar hisoblanadi. Norvegiya va Niderlandiyada logistic xizmatlarning rivojlanganligi tashqi savdoga keng yo‘l ochib, biznes subyektlarining o‘shishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda biznes yuritishning tashkiliy-iqtisodiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda mavjud kichik biznes subyektlari transformatsiyalash jarayonlari hamda kichik va yirik biznes faoliyatlarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyati shuningdek ta’siri aniqlangan. Bundan tashqari, kichik biznes va yirik biznes subyektlarini xalqaro bozor raqobatlashuvidagi o‘rni hamda bugungi kundagi mavjud tendensiyalar aniqlanilib, statsitik tahlillar o‘tkazilgan.

Kichik biznes rivojlanishining har bir bosqichi kichik biznes rivojlanishining alohida istiqboli sifatida qaraladi. Bu bosqichlar agar biznes egasi kichik tadbirkorlik subyektni yanada rivojlantirish va duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olishni istasa, ushbu bosqichlar biznes subyekti faoliyatini tahlil qilish uchun yordam beradi.

Dissertatsiya ishida bizneslar o‘rtasidagi farqlarni va ularning har birining iqtisodiyotdagi o‘ziga xos ta’sirini tahlil qilindi. Kichik bizneslar ko‘proq mahalliy va innovatsion yondashuvlarni qo‘llasa, yirik bizneslar iqtisodiyotni keng miqyosda barqarorlashtirish va global bozorlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega. Bu esa turli miqyosdagi bizneslar iqtisodiyotga qanday qilib o‘zaro bog‘liq va muhim hissa qo‘shishini namoyish etadi.


Kichik biznes va yirik biznesning iqtisodiyotda tutgan o‘rnini o‘rganish bugungi kunda iqtisodchilar o‘rtasida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ularning rivojlanishi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga bevosita yoki bilvosita ta’sir etishi kuzatiladi.



1-rasm. Kichik va yirik biznesning iqtisodiyotga ta’siri¹⁰

¹⁰ Muallif tomonidan yaratilgan

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'rsatkichlarining yalpi o'zgarishi iqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM, ishsizlik, ish haqi va h.z)ga to'g'ridan- to'g'ri o'zgarishiga sabab bo'lganda, bevosita ta'sirini ko'rish mumkin. Kichik va yirik biznesning bilvosita ta'siri bozorga yangi mahsulotlar, usullar va ishlab chiqarish jarayonlarini olib kirish hamda unumdorlik va raqobatni yanada kengroq oshirish orqali namoyon bo'ladi.



2-rasm. Kichik biznesning YaIMdagi ulushi¹¹

Global iqtisodiy vaziyat va xususan, COVID-19 pandemiyasi kabi inqirozlar ham e'tiborga molikdir. Pandemiya davrida ko'plab kichik bizneslar daromadlarining keskin pasayishi yoki umuman yopilishiga duch kelishdi. Bu, albatta, kichik bizneslarning iqtisodiyotdagi ulushining kamayishiga ta'sir qiladi.

2-jadval

Kichik biznesning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining yillik o'zgarib borishi (foizda)¹²

Yillar	Sof tushum o'zgarishi foizda	Qurilish ishlaridagi ulushi	Sof foyda (zarari) o'zgarishi foizda	Jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi	Jami bandlikdagi ulushi
2014	25,4	66,7	21,6	59,1	77,6
2015	18,6	66,9	32,4	60,2	77,9
2016	33,6	64,8	67,4	63,2	78,2
2017	23,3	73,2	-32,4	58,3	78
2018	67,6	75,8	127,9	56	76,3
2019	35,1	70,6	-2,7	53,2	76,2
2020	13,7	72,5	-36,4	51,8	74,5
2021	47,3	72,5	50,7	51,7	74,5
2022	36,9	71,5	-19,4	49,4	73,9
2023	23,5	74,7	42,1	47,7	74,1

YaIMdagi ulushi va jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi pasaygan bo'lsa-da, mahsulot sotishdan tushgan sof tushum va bandlikdagi ulush nisbatan barqaror


¹¹ Statistika agentligining siat.stat.uz portali ma'lumotlariga tayanib muallif tomonidan shakllantirildi

¹² Statistika agentligining siat.stat.uz portali ma'lumotlariga tayanib muallif tomonidan shakllantirildi

saqlanib qolgan. Bu ko'rsatkichlar mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarni, kichik bizneslarning iqtisodiy salohiyatini va rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi.

Kichik biznes har qanday iqtisodiyot rivojlanishining, yangi ish o'ringlarini yaratilishining, raqobat muhiti yaratilishining, innovatsiyalar paydo bo'lishining va biznes muhiti shakllanishining asosi sifatida xizmat qiladi. Turli jahon iqtisodiy inqirozlarining vujudga kelishi orqali yirik kompaniyalarning ham inqiroziga sabab bo'lgan davrlarda kichik biznes subyektlarining mavjudligi iqtisodiyotlar uchun qay darajada muhim ekanligini ko'rish mumkin. AQShning Mehnat Byurosi tadqiqotiga ko'ra taxminan 20% kichik biznes subyektlari dastlabki yilning o'zidayoq inqirozga duch keladilar. Tashkil etilgan subyektlarning faqatgina yarmi yashab qolishlari mumkin.

Mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish uchun faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari va unda kichik biznesning ulushi qanday ekanligini aniqlashimiz lozim bo'ladi. Shu maqsadda, 2010-yildan 2023-yilgacha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining sonidagi o'zgarishlarni tahlil qilindi.




3-rasm. Faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari va kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi¹³

Grafik bo'yicha umumiy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni sezilarli o'sish ko'rsatganini ko'rish mumkin. 2010-yilda bu ko'rsatkich 200,951 edi, va u 2023-yilga kelib 592,371 ga yetgan. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining soni vaqt davomida muntazam oshib borganini ko'rsatadi.

Kichik biznesning yirik korxonaga aylanishi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar, investorlar va keng jamoatchilik uchun keng miqyosli oqibatlarga olib keladi. O'sish ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy rivojlanish va boylik yaratish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin bo'lsa-da, u korporativ boshqaruv, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy biznes amaliyoti nuqtai nazaridan mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. Yirik korxonalar ishonch, chidamlilik va uzoq muddatli qiymat yaratish uchun manfaatdor tomonlarning ishtiroki, ekologik barqarorlik va korporativ fuqarolikka ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

¹³ Statistika agentligining siat.stat.uz portali ma'lumotlariga tayanib muallif tomonidan shakllantirildi



4-rasm. Kichik biznesni rivojlantirish mexanizmlari¹⁴

Kichik biznesni rivojlantirish uchun turli xil mexanizmlar va strategiyalar kerak bo‘ladi. Ushbu chizma kichik bizneslarni moliyaviy, boshqaruv, texnologik, va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatadi.


Avvalo, moliyaviy mexanizmlar katta ahamiyatga ega. Kapital bozorlardan foydalanish, venchur kapital, bank kreditlari, davlat subsidiyalari va grantlari, shuningdek soliq imtiyozlari kichik bizneslarga moliyaviy barqarorlik va kengayish imkoniyatini beradi.

Boshqaruv mexanizmlari esa biznesni samarali boshqarish va tashkil etishni ta‘minlaydi. Yaxshi boshqaruv strukturasi va malakali kadrlar biznesning muvaffaqiyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Texnologik mexanizmlar esa raqobatbardosh bo‘lishda yordam beradi. Yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish va ularni samarali foydalanish kichik bizneslarni innovatsion va samarali qiladi.

Huquqiy va institutsional qo‘llab-quvvatlash esa biznesning huquqiy himoyasini va barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Davlat tomonidan taqdim etiladigan huquqiy yordam va imtiyozlar kichik bizneslarning rivojlanishiga katta yordam beradi. Bu mexanizmlar birgalikda kichik biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta‘minlaydi.

¹⁴ Muallif tomonidan yaratildi



5-rasm. Mikro IPO dasturi modeli¹⁵

Ularning rivojlanishini ta'minlash, kapitalni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish har bir mamlakatning dolzarb masalalaridan biridir. Shu maqsadda Mikro IPO (Initial Public Offering) modeli kichik bizneslar uchun moliyaviy resurslarni samarali jalb qilishning innovatsion yo'li sifatida e'tirof etilmoqda.

Mikro IPO modeli kichik bizneslarni aksiyadorlikka jalb etish orqali ularni moliyaviy mustahkamlashni nazarda tutadi. Bu jarayonda korxonalar kichik miqdordagi aksiyalarni jamoatchilikka taklif qiladi, bu esa kichik investorlar uchun ham ishtirok imkoniyatini taqdim etadi. Modelning asosiy ustunligi uning o'zining moslashuvchanligidadir: kichik bizneslar yirik IPOga qaraganda kamroq xarajat bilan kapital jalb qilishi mumkin.

Ushbu modelni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar, xususan, blockchain va sun'iy intellekt asosida ishlovchi platformalarning joriy etilishi jarayonni tezkor

¹⁵ Muallif tomonidan yaratildi

va shaffof qiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan yengillashtirilgan soliqlar va huquqiy himoya kichik bizneslarni Mikro IPO modelidan foydalanishga rag‘batlantiradi.

Mikro IPO modeli nafaqat moliyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi, balki kichik bizneslarni global bozorlarga chiqarishga ko‘maklashadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va yangi ish o‘rinlari yaratish uchun qulay muhitni shakllantiradi. Shunday ekan, O‘zbekistonda ushbu modelni joriy etish kichik bizneslar uchun yangi rivojlanish ufqlarini ochadi.

Umuman olganda, kichik biznesni moliyalashtirishni tartibga solish islohotlari kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar kichik biznesning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Farg‘ona viloyasi Soliq boshqarmasining ma‘lumotlariga ko‘ra viloyatda 2023-yilda 76 ta yirik korxonalar, 966 ta o‘rta va 11510 ta kichik biznes korxonalarini faoliyat olib bormoqda. Bu ko‘rsatkichlar 2020-yilda 36 ta yirik, 337 ta o‘rta 6336 ta kichik korxonalar ekanligi qayd qilingan. Dissertatsiya ishida 2019-2023 yillarda faoliyat olib borayotgan “Global Asia Standart” MCHJ, “Trust Valley” MCHJ va “Economic shift” MCHJlar faoliyatining moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Bulardan “Trust Valley” va “Economic shift” korxonalarini tez qisqa davr ichida kichik biznesdan yirik biznes darajasiga yetgan korxonalar hisoblanadi.

3-jadval

Tanlangan kichik korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili¹⁶

Yillar	Korxonalar nomi	Daromad (ming so‘mda)	Likvidlilik ko‘rsatkichi	Rentabellik ko‘rsatkichi	Daromat o‘shish surati (foizda)
2019	“Global Asia Standart” MCHJ	7 383 021	3,9	0,44	0,76
	“Trust Valley” MCHJ	720 522	1,9	0,07	-
	“Economic shift” MCHJ	9 100 424	3,9	3,00	-
2020	“Global Asia Standart” MCHJ	6 106 227	3,2	0,36	-0,21
	“Trust Valley” MCHJ	7 346 154,4	3,5	0,70	0,90
	“Economic shift” MCHJ	10 149 877	14,8	4,07	0,10
2021	“Global Asia Standart” MCHJ	17 913 774	6,8	1,26	0,66
	“Trust Valley” MCHJ	9 727 015	2,0	0,68	0,24
	“Economic shift” MCHJ	21 962 995	2,1	4,04	0,54

¹⁶ Farg‘ona viloyasi Soliq boshqarmasining ma‘lumotlariga tayanib muallif tomonidan shakllantirildi

2022	“Global Asia Standart” MCHJ	19 001 619	2,5	0,89	0,05
	“Trust Valley” MCHJ	59 470 685	1,9	3,75	0,84
	“Economic shift” MCHJ	102 700 823	6,7	24,93	0,79
2023	“Global Asia Standart” MCHJ	24 600 552	1,3	0,48	0,22
	“Trust Valley” MCHJ	112 268 777	1,2	2,26	0,47
	“Economic shift” MCHJ	159 014 634	3,9	35,27	0,35


Har uch korxonada ham o‘shish va rentabellik bo‘yicha ijobiy tendensiyani namoyish etmoqda. “Global Asia Standart” barqaror o‘shish va moliyaviy barqarorlikni ko‘rsatadi lekin, sof foyda o‘shishi nisbatan past bo‘lishi, bu operatsion xarajatlar va majburiyatlarni boshqarishda qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. “Economic Shift” va “Trust Valley” juda yuqori daromad va rentabellik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, bozorda o‘zining kuchli o‘rnini namoyish etadi.

Dissertatsiyaning **“Kichik biznesni yirik biznesga transformatsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida kichik va yirik biznesni xalqaro bozor raqobatlashuvdagi mavjud tendensiyalari, iqtisodiy rivojlanishda kichik biznes va yirik biznesning o‘rnini tahlil qilish va prognozlash, shuningdek, kichik biznesni yirik biznesga transformatsiyasini rivojlantirishning usul va vositalari keltirilgan.

Bugungi kunda kichik bizneslar subyektlari o‘z faoliyatlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqdalar. Bu raqamli vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi, masalan, e-tijorat platformalari, ijtimoiy media marketingi va bulutli hisoblash texnologiyalari. Pandemiya davrida masofaviy ishlash imkoniyatlari kengaytirildi va ko‘plab kichik bizneslar endi aralash ish modellarini taklif qilmoqda, bu esa xodimlarni jalb qilish va ushlab turish uchun muhim omil hisoblanadi. Faoliyat olib borayotgan jamiyat kichik biznes subyektlarining asosiy foydalanuvchilari ekan, ularning xohish-istaklari, talab va ehtiyojlarini inobatga olish dastlabki o‘rinda turuvchi masaladir. Bundan tashqari, iqtisodiyotning yangi tendensiyasi hisoblanmish “gig iqtisodiyot” jadal rivojlanishi, kichik korxonalar imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Kichik va yirik bizneslarning biznes modellari bir qator omillar, resurslar va strategik maqsadlar bilan keskin farqlanadi. Bu farqlar nafaqat ularning o‘ziga xos bozor faoliyati va tuzilmasini aks ettiradi, balki iqtisodiy o‘shish, bozorni kengaytirish va innovatsion jarayonlarni qanday boshqarishlarida ham yaqqol ko‘rinadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozoriga kirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu bozor, bir tomondan, kompaniyalarga kapital jalb qilish imkonini bersa, boshqa tomondan, investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Qimmatli qog‘ozlar bozori, raqobat muhitini rivojlantirish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.



6-rasm. Kichik va yirik biznesning zamonaviy tendensiyalari¹⁷

Kichik biznes risklarni boshqarishda odatda norasmiy yondashuvni qo'laydi. Tadbirkorlar ko'pincha shaxsiy qarorlar qabul qiladi va xatarlarni o'z zimmasiga olishadi, chunki bu o'sish uchun zarur bo'lgan jarayon. Ularning daromad modeli oddiyroq bo'lib, mahsulot yoki xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri sotishga asoslanadi. Yirik biznes esa murakkab risk boshqaruv tizimlariga ega bo'lib, turli bozor sharoitlari va xatarlarni oldindan tahlil qiladi. Ularning daromad modellari ko'p qirrali va turli daromad oqimlarini o'z ichiga oladi, jumladan, lisenziyalash, franshiza va xalqaro savdo.

Tadqiqotni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2010-2023 yillar oralig'idagi ma'lumotlarga tayangan holda olib borildi. Ushbu tahlillarni amalga oshirishda korrelatsiya, regressiya, Fisher tenglamasi, ehtimoliy xatoliklarni aniqlash testlaridan foydalanildi.

Ushbu model statistik usullar hamda matematik tenglamalar yordamida iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganish imkonini beradi va u quyidagicha:

$$Y = X_1^a * X_2^b * X_3^c * e \quad (3.1)$$

Korrelatsion tahlil kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash va turli ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish maqsadida o'tkazildi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznesning YaIMdagi ulushi sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi bilan juda yuqori korrelatsiyaga ega bo'lib, bu bog'liqlik koeffitsienti 0.990 ga tengdir. Bu esa kichik biznesning YaIMdagi ulushi oshishi bilan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi ham deyarli bir xil darajada oshishini ko'rsatadi. Shuningdek, YaIMdagi ulushning asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar hajmi bilan korrelatsiyasi 0.994 ga teng bo'lib, bu kichik biznesning YaIMdagi ulushi ortishi bilan investitsiyalarning ham sezilarli darajada oshishini anglatadi.

¹⁷ Muallif tomonidan yaratildi

4- jadval

Kichik biznesning YaIMdagi ulushining chiziqli regression tahlil¹⁸

Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	[Interval]	Sig
